

ALIFBO VA UNING TIL VA JAMIYAT TARQQIYOTIDAGI O ‘RNI

Sohiboyeva Gulyora Sadirjon qizi

Termiz davlat universiteti 2-kurs magistranti

Til har qanday millatning ma’naviy, madaniy va ijtimoiy hayotida markaziy o‘rinni egallaydi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki milliy o‘zlikni anglash, madaniyat, ilm-fan va ma’naviyatni avloddan-avlodga uzatish vositasi sifatida ham muhim o‘rin egallaydi. Insoniyat paydo bo‘libdiki, tildan unumli foydalanib kelmoqda. Til asrlar davomida jamiyat hayotida eng muhim o‘rin tutib kelgan va bundan keyin ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Til eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo‘lishi insonning bilish, idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so‘z bilan ifodalash imkoniga ega bo‘ldi. Til ilk boshdan e’tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan xizmatni, ya’ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi. Bu albatta, yozuv va alifbo orqali amalga oshiriladi. Alifbo tilning fonetik tizimiga asoslanib, uning yozma shaklini tartibga soladi. Shuning uchun ham alifbo va yozuv tizimlari til va jamiyat taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi.

Yozuv – insoniyat tafakkurining muhim ixtirosi bo‘lib, nutqning grafik belgilari orqali ifodalanishidir. Yozuv orqali insoniyat o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini, bilim va tajribalarini nafaqat zamondoshlari, balki kelajak avlodlarga ham yetkazadi.

Xususan, tilning asosiy vazifasi — kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin

emas. Tilning estetik, gnoseologik (dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lg'a kiritgan tajriba, bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari va b. qimmatli axborotlarning barcha-barchasi ajdodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib boradi. Til jamiyat tarixiqanchalik bog'liq bo'lsa, yozuv ham shunchalik bog'liqdir. Avvalo, dunyodagi hozirda mavjud alifbolarning deyarli hammasi ham mustaqil va tegishli til xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holda yaratilgan emas. Ko'pchilik xalqlar o'z yozuvlarini boshqa til yozuvini o'z tillariga imkoniyat darajasida moslashtirish yo'li bilan yaratganlar. Bu hol yozuv va til munosabatlarida o'z izini qoldirgan. Odamlar til xususiyatlariga yanada moslashtirish uchun yozuvga turli o'zgartishlar kiritadilar, islohotlar qiladilar, bir yozuv tizimini boshqasi bilan almashtiradilar va h.k. Shuni ta'kidlash lozimki, Til va yozuv insoniyat tamaddunida alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda har ikki hodisani bir-biridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Butun bir jamiyatning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ijtimoiy hodisa bo'lsa, yozuv millatning ruhiy-ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omildir. U ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy-ma'rifiy ko'priq vazifasini bajaradi. Yozuvning barqarorligi ko'p jihatdan kishilik jamiyati rivojiga borib taqaladi. Shunday ekan, uning sofliigi va rivoji uchun qayg'urish, xalqning savodxonligini oshirish uchun harakat qilish har bir fuqaroning burchidir.

Alifbo – tilning fonetik tizimidagi tovushlarni maxsus harflar orqali ifodalovchi va tartibga soluvchi tizimdir. Alifbo orqali tilning yozma shakli, imlo qoidalari va talaffuz birliklari aniq belgilanadi.

Tarixda turli yozuv va alifbo tizimlari mavjud bo'lgan. Jumladan, logografik, bo'g'inli va fonetik yozuv tizimlari. Jumladan :

Logografik yozuv tizimida har bir belgi bir so'zni ifodalaydi (masalan, Xitoy iyerogliflari);

Bo'g'inli yozuvda har bir belgi bo'g'inni bildiradi (masalan, qadimgi hind yozuvi);

Fonetik yozuvda esa har bir harf alohida fonemani ifodalaydi (masalan, lotin, kirill va arab alifbolari).

Fonetik alifbolar hozirgi zamonda eng samarali va keng tarqalgan tizim hisoblanadi. Alifbo tilning fonetik tizimiga asoslanadi. Har bir tilning fonemalar tizimi o'ziga xos bo'lib, alifbo shu asosda shakllanadi. O'zbek tilida 28–30 ga yaqin fonema mavjud. Alifboning tovush tizimiga mosligi imlo va talaffuz birligini ta'minlaydi va o'qish hamda yozishni yengillash sanaladi. Imlo qoidalari alifboga asoslanadi. Imlo tildagi so'z va iboralarni yozishda yagona va aniq qoidalar majmuasidan iborat bo'lib, adabiy til me'yorlarini belgilaydi. Imlo va alifbo uyg'unligi tilning rivojida muhim o'rin tutadi.

Til tarixiy rivojlanish jarayonida turli bosqichlarni bosib o'tadi. Bu jarayonlarda alifbo va yozuv tizimining roli beqiyosdir. Yozuv tilning adabiy shaklini shakllantiradi, ilm-fan va madaniyat rivojini ta'minlaydi. Alifbo orqali til keng ommaga tarqaladi va ijtimoiy vazifasini to'liq bajaradi.

Alifbo va yozuv tizimi ilm-fan, adabiyot va san'at rivojining asosi hisoblanadi. O'zbek tilida ham qadimdan arab, lotin va kirill yozuvlari orqali ko'plab ilmiy va madaniy yodgorliklar yaratilgan. Aynan yozuv va alifbo orqaligina ma'naviy meros, tarixiy manbalar avlodlarga yetib keladi.

Alifbo nafaqat tilshunoslik obyekti, balki ijtimoiy muammolarni hal etuvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. U millat o'zligini anglash, til me'yorlarini saqlash, savodxonlik darajasini oshirish va axborot tarqatishda asosiy omil hisoblanadi.

Alifbo jamiyatning juda ko'plab sohalarida (jabhalarida) muhim va zarur hisoblanadi. Quyida asosiy jabhalar :

Alifbo har bir insonning savodxonlik bosqichini boshlovchi asosiy vosita hisoblanadi. O'qish va yozish ko'nikmalari aynan alifbo orqali shakllanadi. Savodli avlod tarbiyalanadi, ta'lim sifati oshadi, ilmiy, madaniy va kasbiy sohalarga tayyor kadrlar yetishadi.

Fan va ilm-fan taraqqiyoti uchun aniq va tushunarli yozuv tizimi zarur. Har bir ilmiy matn, maqola, darslik, risola, dissertatsiya alifbo orqali yaratiladi. Ilmiy tafakkur rivojlanadi, ilm-fan yutuqlari ommaga yetkaziladi, xalqaro hamkorlik va ilmiy almashinuv osonlashadi.

Alifbo milliy madaniyat va tarixiy merosning saqlanishi va avlodlardan avlodga yetkazilishida vosita vazifasini bajaradi. Adabiyot, xalq og'zaki ijodi, tarixiy hujjatlar, qadimiy bitiklar saqlanib qoladi va o'rganiladi.

Matbuot, internet, televidenie, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatishda alifbo asosiy vosita sanaladi. Jamiyat tez va to'g'ri axborot oladi, axborot olish va tarqatish erkinligi ta'minlanadi. Rasmiy hujjatlar, qonunlar, nizomlar, farmonlar, xalqaro shartnomalar ham alifbo orqali shakllanadi. Fuqarolik va davlat boshqaruvi tartiblashadi, huquqiy madaniyat shakllanadi, huquqiy hujjatlar aniq va tushunarli bo'ladi.

Moliyaviy hujjatlar, tijorat shartnomalari, hisob-kitoblar, reklama va biznes hujjatlari alifbo orqali rasmiylashtiriladi. Savdo-sotiq, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va ichki iqtisodiy tizim samarali boshqariladi

Dasturlash, elektron hujjatlar, web-saytlar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt va boshqa IT yo'nalishlari ham alifbosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Raqamli transformatsiya va axborotlashtirish jarayonlari rivojlanadi, milliy dasturlar va tizimlar yaratiladi.

O'zbek tilida hozirgacha uch marotaba asosiy alifbo almashuvi sodir bo'lgan: arab alifbosidan lotinga (1929-yil), lotindan kirillga (1940-yil) va mustaqillikdan so'ng yana lotin alifbosiga o'tish (1993-yil). Har bir islohot muayyan ijtimoiy, siyosiy va ilmiy asosga ega bo'lgan.

O'zbek tilining fonetik tizimiga mos alifbo ishlab chiqish orqali imlo va talaffuz birligi ta'minlanadi. Islohotlar natijasida, adabiy til me'yorlari qayta ko'rib chiqilib, zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirilmoqda. Amaldagi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi ba'zi fonetik noaniqliklar va imlo masalalariga ega bo'lsa-da, umumiy jihatdan xalqaro standartlarga mos, oson o'zlashtiriladigan va rivojlanishga ochiq tizimdir.

Alifbo til va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismidir. Har bir millat tilining o'z alifbosiga ega bo'lishi, uning tarixiy, madaniy va ilmiy taraqqiyotini ta'minlaydi. O'zbek tilidagi alifbo islohotlari tilning rivojlanishiga, savodxonlikning oshishiga, madaniyat va ilm-fanning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.